bo‘ladigan hamda ijobiy xatti-harakatlarni rag‘batlantirish orqali qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qituvchilarning sinf muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan (Can & Baksi, 2014). Maktab va sinf muhiti o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlariga nisbatan sezgirlikni oshiruvchi, motivatsion rag‘batlantirishga ta’sir qiluvchi va nazorat lokusi tendensiyalarini shakllantiruvchi kuchli pedagogik hamda psixologik omillar hisoblanadi.

Tanlash erkinligi ta’minlangan, “biz” tuyg‘usi va ijtimoiy uyg‘unlik kuchli bo‘lgan muhit o‘quvchilarning o‘z harakatlari natijalarga ta’sir qilishiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda shu orqali ichki nazorat lokusining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Aksincha, avtoritar, tashqi yo‘naltirilgan va jazolovchi muhit o‘quvchilarda tashqi nazorat lokusiga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchilar uchun nafaqat o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini, balki ularning uzoq muddatli psixologik bardoshliligini rivojlantirish maqsadida sinf va maktab muhitini ongli ravishda tashkil etish muhim pedagogik mas’uliyat hisoblanadi.

1-jadval

Maktab va sinf muhitining nazorat lokusiga ıkki o‘lchovli ta’siri

Muhit o‘lchovi	**Ichki nazorat lokusini qo‘llab-quvvatlovchi (ijobiy) muhit xususiyatlari**	**Tashqi nazorat lokusini qo‘zg‘atuvchi (salbiy) muhit xususiyatlari**
Boshqaruv va qoidalar	Demokratik, ishtirokchi, oldindan aytib bo‘ladigan, adolatli va izchil qoidalar.	Avtoritar, o‘zboshimchalik, nomuvofiq, qattiq va jazolovchi qoidalar.
O‘qituvchi munosabati va aloqalar	Qo‘llab-quvvatlovchi, ishonchga asoslangan, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, fikr bildiruvchi, muxtoriyatni rag‘batlantiruvchi.	Buyruq beruvchi, masofali, tanqidiy, natijaga yo‘naltirilgan, haddan tashqari nazoratchi.
O‘quv jarayoni va haholash	Faol o‘rganish, tanlash huquqi, xato qilish erkinligi, jarayonga yo‘naltirilgan, konstruktiv baholash.	Passiv o‘rganish, yagona qo‘llash, xato qo‘rquvi, natijaga yo‘naltirilgan, hukm chiqaruvchi baholash.
Ijtimoiy va hissiy muhit	Psixologik xavfsizlik, hamkorlik, hurmat, tegishlilik hissi, tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash.	Tashvish va noaniqlik, raqobat, chetlanish hissi, tengdoshlar o‘rtasidagi nizolar.
O‘quvchida Kutilayotgan Ta’sir	“Mening harakatlarim natijani o‘zgartiradi. Bu yerda mening ovozim bor va men qadrlanaman.” (Ichki nazorat lokusi)	“Natija mening nazoratimda emas. Qoidalar va o‘qituvchi nima desa, o‘shasi bo‘ladi.” (Tashqi nazorat lokusi)

XULOSA

O‘quvchilarda ichki nazorat lokusini rivojlantirish nafaqat individual psixologik yutuq, balki demokratik, mas’uliyatli va psixologik jihatdan barqaror

avlodni tarbiyalashga qaratilgan muhim ta’limiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun o‘qituvchilarning ongli pedagogik yondashuvlari bilan bir qatorda, butun maktab jamoasi tomonidan shakllantiriladigan xavfsiz, adolatli, qo‘llab-quvvatlovchi, kompetentlikni rivojlantiruvchi, stereotiplardan xoli va muxtoriyatni rag‘batlantiruvchi psixologik muhit zarurdir. Ichki nazorat lokusi nafaqat individual shaxsiy xususiyat, balki pedagogik va psixologik jihatdan tizimli ravishda rejalashtirilgan ta’sirlar asosida maktab ekotizimida shakllanadigan rivojlanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur jarayon barcha manfaatdor tomonlar tomonidan izchil qo‘llab-quvvatlanishi va mustahkamlanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda ichki nazorat lokusining rivojlanishi ularga nafaqat akademik ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi, balki zamonaviy jamiyatning murakkab muammolari oldida mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola biladigan, o‘z tanlovlarining oqibatlarini anglaydigan hamda o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan mustaqil va chidamli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta’lim siyosati va maktab boshqaruvi ushbu muhitni yaratish hamda barqarorligini ta’minlash uchun zarur resurslar, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va tashkiliy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yishi kerak. Ayniqsa, o‘qituvchilar kasbiy faoliyat davomida nazariy va amaliy bilimlarni samarali uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda olib boriladigan yangi tadqiqotlar maktab muhiti komponentlarining nisbiy ta’siri va uzoq muddatli samaradorligini muntazam hamda qiyosiy tahlillar asosida o‘rganish orqali ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarga muhim hissa qo‘shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizova F.L., Avezova G.S., Dusmatova M.B., Ataeva G.I. Innovatsion pedagogik usullarni joriy etish orqali talabalar bilim, malaka, ko‘nikmalarini oshirish // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. – 2024. – № 9. – B. 1–8.

2. Can E., Baksi O. Öğrencilerin sınıf içi tutum ve davranışlarının öğretmenlerin sınıf yönetimi başarısına etkisi // Asian Journal of Instruction. – 2014. – Vol. 2, № 1 (Özel Sayı). – P. 86–101.

3. Dönmez A. Denetim odağı (locus of control) // Agar Hitler isteseydi… (Sosyal psikoloji yazıları) / Ed. A. Dönmez. – Ankara: İmge Kitabevi, 1994. – S. 189–205.

4. Patall E.A., Cooper H., Robinson J.C. The effects of choice on intrinsic motivation and related outcomes: A meta-analysis of research findings //

Psychological Bulletin. – 2008. – Vol. 134, № 2. – P. 270–300. DOI: 10.1037/0033-2909.134.2.270.

5. Qurbonovich M.U.B. Talaba-yoshlar tashabbuslarini rag‘batlantirish va yo‘naltirishning pedagogik strategiyalari: Tarix va zamon // Fergana Methodical School. – 2024. – № 2. – B. 28–35.

6. Rotter J.B. Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement // Psychological Monographs: General and Applied. – 1966. – Vol. 80, № 1. – P. 1–28. DOI: 10.1037/h0092976.

7. Sakız G. Başarıda anahtar kelime: Öz-yeterlik // Journal of Uludağ University Faculty of Education. – 2013. – Vol. 26, № 1. – P. 185–210.

8. Toxirovich N.J. Masofaviy ta’lim jarayonida talabalarda motivatsion hissini shakllantirishning psixologik xususiyatlari // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2024. – Vol. 2, № 1. – B. 182–190.

OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Jabborov Xazrat Xusenovich
Toshkent davlat sharqshunoslik va Aniq va ijtimoiy fanlar universitetlari professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), Respublika “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi
E-mail: xxjabborov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada ota-ona va farzand munosabatlarini milliy tarbiya asosida tashkil etishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari yoritilgan. Oilaviy munosabatlarda milliy qadriyatlar, o‘zaro hurmat, muloqot va emotsional yaqinlikning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, milliy tarbiyaning farzand kamoloti va oilaviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, ota-ona va farzand munosabatlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, milliy qadriyatlar, muloqot, oilaviy barqarorlik.

Аннотатsiя: В статье рассмотрены социально-психологические возможности организатsии взаимоотношений родителей и детей в семье на основе natsионального воспитания. Проанализировано значение natsиональных ценностей, взаимного уважения, общения и эмоциональной близости в семейных отношениях. Также раскрыта роль natsионального воспитания в развитии ребенка и обеспечении стабильности семьи.

Ключевые слова: natsиональное воспитание, отношения родителей и детей, семейные отношения, социально-психологические факторы, natsиональные ценности, общение, стабильность семьи.

Abstract: This article examines the socio-psychological opportunities for organizing parent-child relationships in the family based on national upbringing. The importance of national values, mutual respect, communication, and emotional closeness in family relationships is analyzed. The study also highlights the role of national upbringing in child development and family stability.

Keywords: national upbringing, parent-child relationships, family relationships, socio-psychological factors, national values, communication, family stability.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashgan davrda oilaviy munosabatlarni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish masalasi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylangan. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida shaxs kamolotida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, ota-ona va farzand

munosabatlarining sog‘lom tashkil etilishi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu jihatdan milliy tarbiya asosida ota-ona munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Masalaga daxldor adabiyotlardan ma’lumki, milliy tarbiya - bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, qadriyatlari, an’analari, axloqiy me’yorlari va ma’naviy merosiga asoslangan tarbiyaviy tizimdir. Milliy tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, oilaparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishdan iborat [1].

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Jumladan, sharq mutafakkirlari - Abu Nasr al-Farabi, Avicenna, Alisher Navoi, Abdulla Avloniy kabi allomalar oiladagi tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, oiladagi sog‘lom muhit va o‘zaro hurmat farzand shaxsining ijtimoiylashuvida hal qiluvchi omil hisoblanadi [2].

Masalaga daxldor tadqiqotlardan ma’lumki, ota-ona munosabatlari oiladagi emotsional muhit, o‘zaro muloqot, hamkorlik va psixologik yaqinlik asosida shakllanadi. Psixologik nuqtai nazardan sog‘lom oilaviy munosabatlar “o‘zaro hurmat va ishonch”, “emotsional qo‘llab-quvvatlash”, “hamkorlik va mas’uliyatni taqsimlash”, “nizolarni konstruktiv hal etish”, “ijobiy kommunikativ muhitning mavjudligi” kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Bizningcha, milliy tarbiya asosidagi oilalarda ushbu xususiyatlar yanada barqaror shakllanadi. Chunki milliy qadriyatlarda oilaning muqaddasligi, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va ahillik ustuvor o‘rin egallaydi.

Bizningcha, bugungi kunda milliy tarbiya asosida ota-ona munosabatlarini tashkil qilishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini tadqiq qilish va unda quyidagi komponentlarga alohida e’tibor qaratish muhim masala hisoblanadi. Jumladan, milliy qadriyatlar orqali oilaviy birdamlikni mustahkamlash. Milliy qadriyatlar oilada o‘zaro hurmat va ahillik muhitini shakllantiradi. Ayniqsa, “kattalarga hurmat”, “oilaviy mas’uliyat”, “mehr-oqibat”, “sabr-toqat”, “hamjihatlik” kabi qadriyatlar ota-ona munosabatlarini barqarorlashtiruvchi psixologik omillar hisoblanadi.

Shuningdek, sog‘lom muloqot madaniyatini rivojlantirishda milliy tarbiya oilada muomala madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ota-onaning farzand bilan samimiy va hurmatga asoslangan muloqoti farzandning psixologik himoyalanganligini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini hamda ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi. Shuningdek, oilada ochiq va samimiy muloqot nizolarni kamaytiradi hamda emotsional yaqinlikni kuchaytiradi. Shu bois, bu masalada milliy tarbiya orqali ota-onalar farzandlarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, ma’naviy mas’uliyat va tarixiy xotira kabi sifatlarni rivojlantirishi juda muhimdir. Bu esa yoshlarning turli yot g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitetini kuchaytiradi [3].


Mazkur masalaning psixologik imkoniyatlari sifatida oilada psixologik barqarorlikni ta’minlash, stress darajasini kamaytirish, nizolar sonini qisqartirish va farzandlarning ruhiy salomatligini yaxshilashni ko‘rsatish mumkin. Bunday muhit shaxsning sog‘lom ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

Shuningdek, milliy tarbiya asosida shakllangan oilalarda ota-onalar farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashsagina deviant xulqning oldini olish, internet va virtual muhitning salbiy ta’sirini kamaytirish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Qolaversa, bugungi kunda globallashuv, ommaviy madaniyat va virtual muloqotning kuchayishi oilaviy qadriyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, individualizmning kuchayishi, ijtimoiy begonalashuv, oilaviy muloqotning kamayishi va ma’naviy qadriyatlarning susayishi kabi holatlar ota-ona munosabatlarida taranglikni yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli milliy tarbiya asosida oilaviy munosabatlarni tashkil qilish bugungi davrning muhim ijtimoiy ehtiyojiga aylanmoqda [4].

Biz tadqiqotimiz davomida oliy ta’lim muassasasi talabalarida “Oiladagi xavotir tahlili so‘rovnomasi” hamda “Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi”ni o‘tkazdik va masalaga daxldor empirik natijalarni qo‘lga kiritdik. Mazkur empirik natijalar asosida ota-onalar, amaliyotchi psixologlar va pedagoglar uchun maqsadli hamda manzilli amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oliy ta’lim muassasasi 1-kurs talabalari orasida “Oiladagi xavotir tahlili so‘rovnomasi” o‘tkazildi. Empirik natijalar quyidagi ko‘rsatkichlarni qayd etdi (1-rasm).



1-rasm. Oiladagi xavotir tahlili so‘rovnomasining empirik natijalari

Natijalarga ko‘ra, talabalarning 13%ida oilaviy hayotda aybdorlik hissi aniqlanildi. Oilaviy hayotda aybdorlik hissi - odamning o‘zini doimo oila ishlarida no‘noq, imillovchi va barchaga faqat halaqit beruvchi deb hisoblashga moyilligida ifodalanadi. Mazkur holat maqsadli va manzilli tarzda korreksiya qilinishi zarurdir.

Talabalarning 20%ida esa oilaviy hayotda xavotir hissi ustunlik qilishi aniqlandi. Oilaviy hayotda xavotir hissi - odamning oilaviy hayotda doimo nimagadir ulgurmaslik, nimanidir yaxshi bajara olmaslik yoki noto‘g‘ri qilib qo‘yishi mumkinligi haqidagi o‘y-fikrlarga moyilligida namoyon bo‘ladi.

Mazkur so‘rovnoma bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich oilaviy hayotda asabiy-taranglik holatida qayd qilindi, ya’ni sinaluvchilarning 67%ida ushbu holat kuzatildi. Oilaviy hayotda asabiy-taranglik - odamning oiladagi har qanday, hatto arzimas vaziyatlarda ham noo‘rin darajadagi xushyorlikni, haddan tashqari tirishqoqlikni, bezovtalikni va zaruridan ortiq harakatchanlikni namoyon etishga moyilligida ko‘rinadi. Demak, biz talabalar orasida oiladagi ijtimoiy-ma’naviy va psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan hamda oilada ota-ona–farzand munosabatlarini yaxshilash bo‘yicha tizimli psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, bunday vaziyatlarda, ya’ni oiladagi xavotirli holatlarni bartaraf etishda psixologik xizmat ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada aybdorlik hissi yuqori bo‘lgan talabalar bilan olib boriladigan psixologik konsultatsiya ishlarida quyidagi tamoyillar inobatga olinishi kerak: talabada o‘zini qadrlash va o‘z imkoniyatlariga ishonchni tiklash lozim. Individual suhbatlarda o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash muhimdir. Oilada aybdorlik hissi yuqori bo‘lgan talabalar o‘rtasida “Men oilada qanday rol o‘ynayman?” mavzusida reflektiv suhbatlar tashkil etilishi lozim. O‘zini ayblash va real javobgarlik o‘rtasidagi farqni tahlil qilish hamda ularda “Ijobiy Men” konsepsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada xavotir hissi yuqori bo‘lgan talabalar bilan olib boriladigan psixokonsultatsiya ishlarida esa ularning ichki tinchligi va ishonchini mustahkamlash muhim hisoblanadi. Shuningdek, “Xavotir manbalari xaritasi” konsepsiyasi asosidagi ishlarni amalga oshirish lozim. Tinchlanish, nafas olish va meditatsion texnikalarni qo‘llash tavsiya etiladi. Oilada xavotir hissi yuqori bo‘lgan talabalarda “Nima bo‘lsa ham men eplay olaman” kognitiv o‘zgarish mashqlarini o‘tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Oilada asabiy-tarang holatdagi talabalar uchun olib boriladigan psixokonsultatsiya ishlarida esa stressni boshqarish va ijobiy emotsional muvozanatni tiklash kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, stressni kamaytirish strategiyalari bo‘yicha autotrening, mushaklarni bo‘shashtirish mashqlari hamda “Salbiy energiyani so‘ndiruvchi so‘zlar” mashqlarini o‘tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Oilada aybdorlik hissini korreksiya qilishda “O‘zini kechirish maktubi”, “Men oilada foydaliman, chunki...”, “Ijobiy o‘zini baholash ro‘yxati”, “Oila muammosini ayblovsiz hal qilish” kabi psixotexnikalarni qo‘llash tavsiya qilinadi [5].

Oilada xavotir hissini kamaytirishga qaratilgan korreksion ishlarda kognitiv qayta tuzish, “Eng yomon natija ham meni o‘zgartira olmaydi” yondashuvi, “Sokin joy” vizualizatsiya mashqi hamda tana va nafas bilan ishlash (Jacobson relaksatsiyasi asosida) kabi psixotexnikalarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Oilada asabiy-taranglikni pasaytirishga qaratilgan korreksion ishlarda “Qo‘yib yuborish” mashqi - harakat orqali stressni chiqarish, “Sokinlik zonasi” - auditoriyada tinch va yumshoq fon asosida mashq o‘tkazish, emotsional ventilatsiya - his-tuyg‘ularni so‘z orqali ifoda qilish kabi psixotexnikalarni qo‘llash tavsiya qilinadi.

Shuningdek, oilada xavotir hissi yuqori bo‘lgan farzandlar bilan ishlashda va bu xavotirlarni kamaytirishda quyidagi psixologik trening mashg‘ulotlari tavsiya etiladi:

- “Sog‘lom oilaviy muloqot” treningi. Mazkur treningning maqsadi oila ichidagi muloqot madaniyatini rivojlantirishdir. Mashqlar: “Eshitishni o‘rganaman” (faol va pozitiv tinglash), “Men-xabarim” (ayblamasdan fikr bildirish), “Oila qadriyatlari piramidasi”.
- “Stress va xavotirni boshqarish” treningi. Maqsad - tinchlik, barqarorlik va muvozanatni shakllantirish. Mashqlar: tana va nafas muvozanati mashqlari, “Stress holatini teatr orqali ifodalash”, “Ijobiy so‘zlar orqali kayfiyatni o‘zgartirish”.
- “O‘zini qadrlash va ichki ishonch” treningi. Mazkur treningning maqsadi talabalarning o‘z imkoniyatlarini tan olish va qadrlashga o‘rgatishdir. Mashqlar: “Menda nima bor?” - o‘z resurslarini sanash, “Komplimentlar zanjiri”, “Men kimman?” - ijobiy identifikatsiya mashqlari [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz oilada xavotiri mavjud bo‘lgan farzandlar bilan ishlashda pedagoglar uchun quyidagi amaliy psixologik tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- Talabalarda hissiy holatni kuzatish va stress belgilarini erta aniqlash;
- Tanqid emas, qo‘llab-quvvatlash orqali xulqni boshqarish;
- Mashg‘ulotlarda “psixologik dam olish daqiqalari”ni joriy etish.

Amaliyotchi psixologlar uchun esa quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Guruhli va individual psixoprofilaktika rejasini ishlab chiqish;
- Har bir hissiy holat uchun alohida konsultativ modul yaratish;
- Treninglar samaradorligini qayta baholash uchun so‘rovnoma va intervyular o‘tkazish.

Ota-onalar uchun esa quyidagi amaliy tavsiyalar muhim hisoblanadi:

- Farzandni oilaviy ishlarga jalb etishda unga ishonch bildirish;
- Tanbeh o‘rniga muloqot va tushuntirish usullarini qo‘llash;
- Uyda ijobiy emotsional muhit yaratish (birgalikdagi o‘yinlar, suhbatlar, kechki choy va boshqalar).

Demak, tadqiqotimizga xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra talabalarning muayyan qismida oilaviy hayotda salbiy hissiy

holatlarga moyillik aniqlangan: 13%ida aybdorlik hissi, 20%ida xavotir hissi va 67%ida asabiy-taranglik holati kuzatilgan. Bu esa talabalarning oilaviy munosabatlarda emotsional beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik hamda stressni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatadi.


Shu sababli psixologik xizmatda maqsadli konsultatsiyalar, korreksion mashg‘ulotlar va treninglar orqali talabalarni o‘z-o‘zini anglash, ichki tinchlikni saqlash hamda sog‘lom oilaviy muloqotni rivojlantirishga yo‘naltirish zarur. Bunda:

- psixologik konsultatsiyalar - aybdorlik, xavotir va taranglik manbalarini aniqlash hamda ijobiy fikrlashni shakllantirishga qaratiladi;
- psixokorreksion ishlar - salbiy hissiy holatlarni kamaytirish va o‘zini qadrlashni tiklashni ta’minlaydi;
- psixologik treninglar - sog‘lom muloqot, stressni boshqarish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ularni emotsional muvozanatni qo‘llab-quvvatlash, ijobiy muloqot va ishonch muhitini yaratishga yo‘naltirish zarur.

Umuman olganda, mazkur natijalar asosida olib boriladigan psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar talabalarning oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligini oshiradi hamda ularning shaxsiy rivojlanishi va ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Navbatdagi tadqiqotimizda yana oliy ta’lim muassasasi talabalari orasida “Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi” o‘tkazildi. Empirik natijalar quyidagicha ko‘rsatkichlarni qayd qildi (2-rasm).



2-rasm. Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi empirik natijalari

Biz tadqiqotimiz davomida oliy ta’lim muassasasi talabalari orasida “Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi”ni o‘tkazdik va masalaga daxldor empirik natijalarni qo‘lga kiritdik.

Empirik natijalar quyidagicha ko‘rsatkichlarni qayd qildi. Jumladan, ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishida “Qiziqish” shkalasi 33%ni tashkil qildi. Demak, ona qiziga kichik boladek, doimiy e’tiborga, yordam va g‘amxo‘rlikka muhtoj odamdek munosabatda bo‘ladi. Ona bir tomondan qizi bilan maslahatlashishga, ikkinchi tomondan esa uning mustaqilligini cheklashga moyil bo‘ladi. Ona qizining har bir istagini bajo keltirishga tayyorlikni namoyon etadi.

“Direktivlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 27%ni tashkil qildi. Ona qizini qattiq nazorat ostida saqlaydi, unga nisbatan osonlik bilan hukmronlik kuchini ishga tushiradi. Ona qizining o‘z shaxsiy fikrini bildirishga intilishini noxush qabul qiladi. Ona doimo o‘zini haq deb hisoblaydi, qizining aqli hali tegishli masalaga yetmasligini uqtiradi hamda muammolarni jazoning kuchi hal etadi degan fikrda bo‘ladi.

“Dushmanlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 20%ni tashkil qildi. Mazkur natija onaning qiziga nisbatan shubhalanuvchi munosabatda bo‘lishi va undan o‘zini masofada saqlashga intilishini ko‘rsatadi. Onaning shubhalanuvchanligi va o‘zini munosabatdan chetga tortishi qiziga nisbatan ustunlikni oshkora namoyon etishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur so‘rovnomaning “Avtonomlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 13%ni tashkil qildi. Onaning holati va harakatlari qizining holati hamda talablariga mutlaqo bog‘liq bo‘lmaydi. Ona qiziga nisbatan g‘amxo‘rlik va himoyaning har qanday shaklini inkor etadi. Ona qizi tomonidan har narsani kechirib yuboradigan, talabchan bo‘lmagan inson sifatida idrok qilinadi. Ona qizini hech qanday harakatga nisbatan rag‘batlantirmaydi, uning holatlariga tanqidiy fikrni sust va kamdan-kam bildiradi.

So‘rovnomaning “Beqarorlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 7%ni tashkil qildi. Demak, bu shkalada ona qiziga munosabatda tarbiyaviy uslubni keskin va tez-tez o‘zgartirishga, ya’ni qattiqqo‘l tarbiyadan liberal yondashuvga, qizini emotsional yaqin olishdan esa inkor etishga oson o‘tish holati bilan ajralib turadi.

Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi bo‘yicha natijalar asosida quyidagicha psixologik konsultatsiya yo‘nalishlari belgilandi:

“Qiziqish” shkalasi bo‘yicha onaning qiz mustaqilligini to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Konsultatsiya mazmuni: “Chegaralar va yaqinlik” mavzusida suhbat - mehr va erkinlik muvozanatini tushuntirish. Ona bilan “farzandni himoya qilish va ishonch bildirish” o‘rtasidagi farqni anglash. Qiz bilan esa “Men mustaqilman, lekin mehrni qadrlayman” mavzusida suhbat o‘tkazish. Psixokorreksion texnikalar: “Erkinlik piramidasi” mashqi (ona va qiz o‘z mustaqillik chegarasini belgilaydi), “Men yordam so‘rasam, demak ishonaman” - o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi o‘yin.

“Direktivlik” shkalasi bo‘yicha hukmronlik va haddan tashqari nazoratni kamaytirish maqsad qilib olinadi. Konsultatsiya mazmuni: ona uchun “Farzand fikrini tinglash madaniyati” bo‘yicha suhbat, “Nazorat emas, hamkorlik” tamoyilini o‘rgatish.

Qiz bilan “Men o‘zimni ifoda etishim mumkin” deb nomlangan individual suhbat o‘tkazish. Psixokorreksion texnikalar: “Nazorat o‘rniga muloqot” rolikli mashqi, “Men seni eshitaman” rolli sahnalari (ona farzand fikrini to‘liq tinglashni o‘rganadi).

“Dushmanlik” shkalasi bo‘yicha ona-qiz o‘rtasida ishonch va iliqlikni tiklash muhimdir. Konsultatsiya mazmuni: o‘zaro his-tuyg‘ularni tan olish mashqlari (“Men seni his qilaman, sen meni”), ota-onada “emotsional sovuqlikning sabablari”ni ochish. Qizga o‘z hislarini ifoda etish (yozma yoki og‘zaki shaklda) o‘rgatiladi. Psixokorreksion texnikalar: “Ijobiy xotiralar kartasi” - ona va qiz birgalikda yoqimli xotiralarni eslaydi, “Kechirim mashqi” -o‘zaro his-tuyg‘ularni yumshatish.

“Avtonomlik” shkalasi bo‘yicha ona tomonidan e’tiborsizlikni kamaytirish va emotsional aloqani tiklash muhimdir. Konsultatsiya mazmuni: ona bilan “beparvolikning bolaga psixologik ta’siri” haqida suhbat, qizga “Mehrni qabul qilish va so‘rash” mashqlari o‘rgatiladi. Psixokorreksion texnikalar: “Qizi bilan 15 daqiqa” - har kuni qisqa, faqat suhbatga bag‘ishlangan vaqt, “Hislarni nomlash” - ona o‘z qizining holatini so‘z bilan ifoda qilishni o‘rganadi.

“Beqarorlik” shkalasi bo‘yicha tarbiyaviy uslubdagi izchillikni mustahkamlash zarur. Konsultatsiya mazmuni: ona uchun “Barqaror emotsional fon” bo‘yicha maslahat, “Bugun mehribon, ertaga sovuq” kabi o‘zgaruvchanlikning zararini tushuntirish. Psixokorreksion texnikalar: “Tarbiyada izchillik kundaligi” - ona har kuni qilgan tarbiyaviy qarorini yozib boradi, “Bir ovozda harakat” mashqi - har bir oila a’zosi bir xil signal asosida qaror qabul qiladi.

Psixologik treninglar sifatida “Ona va qiz o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi” treningi tavsiya qilinadi. Maqsad - emotsional yaqinlikni tiklash va o‘zaro tushunishni oshirish. Mashqlar: “Ko‘z bilan tinglash” - ona va qiz so‘zsiz bir daqiqa bir-biriga qaraydi, “Birgalikda eslaymiz” - bolalikdagi eng yaxshi voqeani navbat bilan aytish.

“Muloqotda erkinlik” treningi. Maqsad - fikr almashish va his-tuyg‘ularni erkin ifodalashni o‘rgatish. Mashqlar: “Men-xabar” texnikasi (ayblamasdan fikr bildirish), “Qarama-qarshi stullar” - har kim o‘z nuqtai nazarini himoya qiladi.

“Sog‘lom tarbiya uslublari” treningi. Maqsad - tarbiyadagi qat’iylik va yumshoqlik muvozanatini topish. Mashqlar: “Qattiqqo‘lmi yoki adolatlimi?” rolikli muhokama, “Qizimga nima beraman?” - onalar o‘z tarbiyaviy qadriyatlarini aniqlaydi [7].

Pedagoglarga psixologik tavsiyalar:

- talabadagi oilaviy-emotsional beqarorlikni erta aniqlash (xulq, e’tibor va ijtimoiy faollik orqali);
- ota-onalarga bolaning mustaqil fikr bildirishini qo‘llab-quvvatlash zarurligini tushuntirish;
- dars jarayonida “emotsional dam olish daqiqalari”ni tashkil etish.

Psixologlarga tavsiyalar:

- ona-qiz juftliklarini alohida psixodiagnostika orqali tahlil qilish;
- har bir shkala bo‘yicha individual korreksion reja tuzish;
- treninglardan so‘ng psixologik monitoring o‘tkazish (o‘zgarishlarni qayd etish).

Ota-onalarga psixologik tavsiyalar:

- farzand bilan ishonchli va barqaror muloqot o‘rnatish;
- nazoratni emas, tushunishni ustuvor qilish;
- farzand his-tuyg‘ularini tan olish va qo‘llab-quvvatlash;
- tarbiyaviy uslubdagi barqarorlikni saqlash (bugun yumshoq, ertaga qattiq bo‘lmaslik).

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga xulosa qiladigan bo‘lsak, ona-qiz munosabatlarida turli darajadagi psixologik muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, onalarning 33%ida ortiqcha g‘amxo‘rlik va qizining mustaqilligini cheklovchi “qiziqish” holati, 27%ida nazorat va hukmronlikka asoslangan “direktivlik” xulqi, 20%ida ishonchsizlik va masofa saqlashga moyil “dushmanlik” munosabati, 13%ida emotsional befarqlikni ifodalovchi “avtonomlik” holati hamda 7%ida tarbiyadagi izchillik yetishmasligini bildiruvchi “beqarorlik” kuzatildi.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ona-qiz munosabatlarida hissiy yaqinlik, o‘zaro ishonch va muloqot madaniyatini shakllantirishga ehtiyoj yuqori. Shu bois psixologik xizmat jarayonida konsultatsiya, korreksiya va treninglar orqali:

- onalarda farzand mustaqilligini to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- nazorat va hukmronlik o‘rniga hamkorlik hamda tinglash madaniyatini rivojlantirish;
- emotsional sovuqlikni kamaytirish va ishonchli muloqotni tiklash;
- tarbiyaviy izchillikni ta’minlash zarur [8].

Bundan tashqari, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ota-onalarga sog‘lom tarbiya uslublarini singdirish hamda bolalar bilan ijobiy muloqot muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, bu yo‘nalishdagi psixologik xizmatlar ona-qiz o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, mehr, ishonch va hissiy muvozanatni mustahkamlash orqali oilaviy muhitning sog‘lomlashuviga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya oilada ota-ona munosabatlarini sog‘lom tashkil etishning muhim ijtimoiy-psixologik asosidir. Milliy qadriyatlar oiladagi emotsional yaqinlik, o‘zaro hurmat, hamkorlik va ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi. Ota-onalarning milliy tarbiya haqidagi psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish orqali oilalarda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin. Bu esa yosh avlodning barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210
2. M.Quronov. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” Toshkent «Ma’naviyat» 2013. 320 b.4.
3. Karimova V. Oila psixologiyasi. 2008- Toshkent. B.248
4. G‘oziyev E. Oila etikasi va psixologiyasi. 2006. - Toshkent. B.169
5. Shoumarov G‘. Oila psixologiyasi.2008 - Toshkent.B.245
6. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
7. X.X. Жабборов Влияние деструктивной «массовой культуры» на поведение и воспитание человека. Вестник интегративной психологии. Научный журнал. 23 (№23), С.109-111
8. X.X. Jabborov Yoshlarda tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ta’sirchan psixologik uslublari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar образование и инновационные. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Исследования education and innovative research № 5 2021/10 Б. 304-321

LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

Jumanazarov Bekzod Begnazarovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada liderlik psixologiya fanining muhim tadqiqot predmeti sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda liderlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning psixologik mexanizmlari hamda shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy liderlik nazariyalari, jumladan xususiyatlar nazariyasi, vaziyatli yondashuv, transformatsion va tranzaksion liderlik konsepsiyalari ilmiy manbalar asosida qiyosiy tahlil etilgan. Maqolada liderlikning shaxs rivoji, guruh dinamikasi, motivatsiya jarayonlari hamda tashkilot samaradorligini oshirishdagi o‘rni keng ochib berilgan. Tadqiqot natijalari liderlikning nafaqat boshqaruv faoliyatida, balki ijtimoiy-psixologik munosabatlarni tartibga solishda ham muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: liderlik, psixologiya, shaxs, guruh dinamikasi, transformatsion liderlik, tranzaksion liderlik, motivatsiya, boshqaruv, ijtimoiy ta’sir, liderlik nazariyalari.

Аннотация. В данной статье лидерство рассматривается как важный предмет психологического исследования. Анализируются сущность лидерства, его психологические механизмы, а также взаимосвязь с личностными и социальными факторами. На основе научных источников проводится сравнительный анализ современных теорий лидерства, включая теорию черт, ситуационный подход, трансформационное и транзакционное лидерство. В статье раскрывается роль лидерства в развитии личности, групповой динамике, мотивационных процессах и повышении эффективности организации. Результаты исследования показывают, что лидерство является важным фактором не только управленческой деятельности, но и регулирования социально-психологических отношений.

Ключевые слова: лидерство, психология, личность, групповая динамика, трансформационное лидерство, транзакционное лидерство, мотивация, управление, социальное влияние, теории лидерства.

Abstract. This article scientifically examines leadership as an important subject of psychological research. The study analyzes the essence of leadership, its psychological mechanisms, and its relationship with personal and social factors.

Modern leadership theories, including trait theory, situational approach, transformational and transactional leadership concepts, are comparatively analyzed based on scientific literature. The article also highlights the role of leadership in personality development, group dynamics, motivational processes, and organizational effectiveness. The findings indicate that leadership serves as an essential factor not only in management activities but also in regulating socio-psychological relations.

Keywords: leadership, psychology, personality, group dynamics, transformational leadership, transactional leadership, motivation, management, social influence, leadership theories.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda liderlik masalasi psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida samarali liderlik jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Psixologik nuqtai nazardan liderlik - bu shaxsning boshqalarga ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish, ularni maqsad sari yo‘naltirish hamda umumiy faoliyatni tashkil etish qobiliyatidir. Liderlik fenomeni shaxsiy sifatlar, ijtimoiy muhit va guruh munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

XX asr boshlarida liderlik xususiyatlar nazariyasi asosida o‘rganilgan. Keyinchalik vaziyatli yondashuv shakllandi va samarali liderlik vaziyatga moslashuvchanlik bilan bog‘landi. Transformatsion va tranzaksion liderlik nazariyalari liderning izdoshlar motivatsiyasiga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Transformatsion lider izdoshlarning qadriyatlari va dunyoqarashini o‘zgartiradi. Motivatsiya, ijtimoiy idrok, empatiya, emotsional intellekt va kommunikativ kompetensiya liderlikning asosiy psixologik mexanizmlaridir. Lider guruh ichida ijobiy psixologik iqlim yaratadi, nizolarni boshqaradi va jamoani umumiy maqsad sari birlashtiradi. Shaxslararo munosabatlarning uyg‘unligi liderlik samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday jamoada rasmiy yoki norasmiy lider mavjud bo‘ladi.

Lider guruh maqsadlarini belgilaydi, rollarni taqsimlaydi va qarorlar qabul qiladi. Demokratik liderlik uslubi ijodkorlik va motivatsiyani oshiradi, avtoritar uslub esa tezkor natija beradi, biroq uzoq muddatli samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bugungi kunda liderlik psixologiyasi emotsional intellekt, gender farqlari, madaniyatlararo liderlik va raqamli muhitda boshqaruv masalalarini o‘rganmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida masofaviy jamoalarni boshqarish yangi psixologik yondashuvlarni talab etadi. Liderlik psixologiya fanining mustaqil

va muhim tadqiqot predmetidir. U shaxs va guruh o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarini o‘rganadi. Samarali liderlik shaxsiy sifatlar, ijtimoiy vaziyat va psixologik kompetensiyalarning uyg‘unligiga asoslanadi. Liderlik ijtimoiy ta’sir jarayoni bo‘lib, unda bir shaxs guruh a’zolarining xatti-harakatlari, qarashlari va motivatsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Liderlikning psixologik mohiyati shundan iboratki, u faqat boshqaruv emas, balki ruhiy ta’sir va ijtimoiy ilhom jarayonidir. XX asr boshlarida liderlik shaxsning tug‘ma sifatlari bilan bog‘langan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, liderlar boshqalardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Keyinchalik tadqiqotchilar liderning shaxsiy fazilatlaridan ko‘ra, uning xulq-atvoriga e’tibor qaratdilar. Liderlik uslublari tajriba orqali o‘rganildi.

Uning tadqiqotlariga ko‘ra, demokratik uslub guruhda ijobiy psixologik muhit yaratadi. Liderlik nazariyasida yangi bosqichni boshlab bergan olim - James MacGregor Burns hisoblanadi. U transformatsion va tranzaksion liderlik tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritgan. Lider o‘z hissiyotlarini boshqara olishi va boshqalarning emotsional holatini tushuna olishi zarur.

Guruh a’zolari lider shaxsini namuna sifatida qabul qiladi va uning qadriyatlarini o‘zlashtiradi. Aniq, ishonchli va motivatsion nutq liderlik samaradorligini oshiradi. Har qanday jamoada rasmiy yoki norasmiy lider mavjud bo‘ladi. Demokratik liderlik uslubi ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Avtoritar uslub esa tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi, biroq uzoq muddatda motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Bugungi kunda liderlik psixologiyasi quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

-Emotsional intellekt va liderlik;

-Gender va liderlik;

-Madaniyatlararo liderlik;

-Raqamli muhitda liderlik.

Liderlik psixologiya fanining muhim tadqiqot predmeti bo‘lib, u shaxs va guruh o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni o‘rganadi. Samarali liderlik shaxsiy sifatlar, ijtimoiy vaziyat va psixologik kompetensiyalarning uyg‘unligiga asoslanadi. Transformatsion liderlik modeli zamonaviy boshqaruv va ta’lim jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Liderlikni rivojlantirish mumkin bo‘lgan kompetensiya sifatida o‘rganish psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Liderlik muammosi ijtimoiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi va tashkiliy psixologiyaning markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda liderlik “ijtimoiy ta’sir jarayoni” sifatida talqin qilinadi. Xususan, Peter G. Northouse o‘zining “Leadership: Theory and Practice” asarida liderlikni “individning umumiy maqsadga erishish uchun guruhga ta’sir ko‘rsatish jarayoni” deb ta’riflaydi. Liderlik psixologiya fanida shaxsning ijtimoiy faolligi, motivatsion

tuzilmasi, kommunikativ kompetensiyasi hamda emotsional-intellektual salohiyati bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Shu bois liderlik psixologiyaning mustaqil tadqiqot predmeti sifatida shakllanib bormoqda. Liderlikni ilmiy jihatdan o‘rganish XX asr boshlarida boshlangan.

Dastlabki tadqiqotlar lider shaxsining tug‘ma sifatlariga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalish xususiyatlar nazariyasi (trait theory) deb nomlangan. Amerikalik olim Ralph Stogdill 1948-yilda chop etilgan tadqiqotida liderlikni faqat tug‘ma sifatlar bilan tushuntirib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. U shunday yozadi: “Liderlik - bu shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari va vaziyat talablari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat mahsulidir.”

Bu fikr liderlikni kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tushunishga asos bo‘ldi. Liderlikni o‘rganishda muhim ilmiy burilish Kurt Lewin tadqiqotlari bilan bog‘liq. Zamonaviy liderlik nazariyalarida eng muhim konsepsiyalardan biri transformatsion liderlikdir.

Gary Yukl o‘zining “Leadership in Organizations” asarida liderlikni ko‘p omilli jarayon sifatida tahlil qiladi. Unga ko‘ra:

“Samarali liderlik - bu vaziyat, izdoshlar xususiyatlari va lider kompetensiyalarining uyg‘unlashuvidir.”

Liderlik insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyat, guruh va tashkilotlar faoliyatida muhim o‘rin tutib kelgan ijtimoiy-psixologik hodisadir. Psixologiya fanida liderlik nafaqat boshqaruv jarayoni, balki shaxsning psixik xususiyatlari, guruh ichidagi munosabatlar, motivatsiya, ijtimoiy ta’sir va o‘zaro muloqot mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon sifatida o‘rganiladi. Shu sababli liderlik psixologiya fanining alohida va dolzarb tadqiqot predmetlaridan biri hisoblanadi.

Psixologiya nuqtai nazaridan liderlik - bu shaxsning guruh a’zolariga maqsad sari yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, ularni birlashtira olish, ruhlantirish va umumiy natijaga erishishga undash jarayonidir. Bu yerda asosiy e’tibor rahbarlik lavozimiga emas, balki psixologik ta’sir mexanizmlariga qaratiladi. Har qanday rahbar ham lider bo‘lavermaydi, chunki liderlik rasmiy vakolatdan ko‘ra ko‘proq shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy obro‘ va ichki ta’sir kuchiga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Liderlik psixologiyasining tadqiqot predmeti sifatida bir necha asosiy yo‘nalishlar ajratiladi. Avvalo, lider shaxsining individual-psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Bunga temperament, xarakter, irodaviy sifatlar, intellekt darajasi, emotsional barqarorlik, kommunikativ qobiliyat, empatiya va motivatsion omillar kiradi. Psixologlar uzoq vaqt davomida liderlik tug‘ma fazilatmi yoki rivojlantiriladigan sifatmi degan savolga javob izlab kelganlar. Tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, ayrim tabiiy predispozitsiyalar mavjud bo‘lsa-da, liderlik ko‘nikmalari tarbiya, ta’lim va tajriba orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Liderlik nazariyalari psixologiyada turli bosqichlarda shakllangan. XX asr boshlarida shakllangan “buyuk shaxslar nazariyasi” liderlikni tug‘ma qobiliyat sifatida talqin qilgan. Keyinchalik xususiyatlar nazariyasi rivojlanib, liderlarda uchraydigan umumiy psixologik fazilatlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi. Masalan, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, mas’uliyat hissi, yuqori ijtimoiy faollik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati lider shaxsiga xos sifatlar sifatida qayd etilgan.

XX asr o‘rtalariga kelib xulq-atvor nazariyalari paydo bo‘ldi. Bu yondashuvga ko‘ra, liderlik shaxsning ichki sifatlaridan ko‘ra uning muayyan vaziyatdagi xatti-harakatlari bilan belgilanadi. Psixologlar liderning demokratik, avtoritar va liberal uslublarini tahlil qilib, ularning guruh samaradorligiga ta’sirini o‘rgandilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, demokratik uslub ko‘proq ijobiy psixologik muhit yaratadi va guruh a’zolarining motivatsiyasini oshiradi.

Vaziyatli nazariyalar esa liderlikni konkret sharoit bilan bog‘lab tushuntiradi. Bu yondashuvga ko‘ra, samarali liderlik uslubi guruhning rivojlanish darajasi, vazifaning murakkabligi va ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘ladi. Demak, liderlik universal xususiyat emas, balki vaziyatga moslashuvchan psixologik jarayondir.

Zamonaviy psixologiyada transformatsion va tranzaksion liderlik tushunchalari keng qo‘llaniladi. Transformatsion lider guruh a’zolarining qadriyatlari va motivatsiyasini o‘zgartirib, ularni yuqori maqsadlarga ilhomlantiradi. Tranzaksion lider esa mukofot va jazoga asoslangan boshqaruv mexanizmlaridan foydalanadi. Bu ikki yondashuv tashkilot psixologiyasi va menejment sohasida keng o‘rganilgan.

Liderlik psixologiyasi ijtimoiy psixologiya bilan uzviy bog‘liqdir. Guruh dinamikasi, ijtimoiy rollar, konformizm, referent guruh tushunchalari liderlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Lider guruh ichida rasmiy yoki norasmiy mavqega ega bo‘lishi mumkin. Norasmiy lider ko‘pincha psixologik ta’sir kuchi bilan ajralib turadi va guruh kayfiyati hamda qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Motivatsiya nazariyalari ham liderlikni tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ehtiyojlar ierarxiyasi, o‘zini o‘zi amalga oshirish, muvaffaqiyatga intilish motivlari liderlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi omillar sifatida qaraladi. Lider shaxs ko‘pincha yuqori yutuqqa erishish motivatsiyasi, mustaqillik ehtiyoji va ijtimoiy tan olinishi istagi bilan ajralib turadi.

Emotsional intellekt ham zamonaviy liderlik psixologiyasining muhim komponentidir. O‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish, boshqalarni tushunish va empatiya ko‘rsatish liderning samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, yuqori emotsional intellektga ega liderlar jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratishga muvaffaq bo‘ladilar.

Liderlikning shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir jamiyatda liderga qo‘yiladigan talablar, qadriyatlar va stereotiplar farqlanadi. Shuning uchun liderlikni o‘rganishda milliy mentalitet, madaniy an’analar va ijtimoiy kutishlarni hisobga olish zarur.

Liderlik psixologiya fanining tadqiqot predmeti sifatida yanada chuqurroq tahlil qilinganda, uning nazariy, amaliy va metodologik jihatlari alohida e’tibor talab etadi. Chunki liderlik oddiy boshqaruv faoliyati emas, balki inson ongiga, hissiyotiga, qadriyatlariga va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan murakkab psixologik jarayondir.

Avvalo, liderlik psixologiyasining metodologik asoslari haqida to‘xtalish lozim. Bu sohada kuzatish, eksperiment, sotsiometriya, test metodlari, so‘rovnomalar va biografik tahlil kabi ilmiy usullar qo‘llaniladi. Guruh ichidagi munosabatlarni aniqlash uchun sotsiometrik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida kim guruh ichida ko‘proq e’tirof etilishi, kimga ishonch bildirilishi va kim norasmiy lider sifatida shakllanayotganini aniqlash mumkin. Eksperimental tadqiqotlar esa turli boshqaruv uslublarining guruh samaradorligiga ta’sirini o‘rganishga imkon beradi.

Liderlikni psixologik jihatdan o‘rganishda motivatsion omillar alohida o‘rin tutadi. Lider ko‘pincha ichki motivlar asosida harakat qiladi. U faqat tashqi mukofot yoki lavozim uchun emas, balki o‘zini namoyon qilish, boshqalarga foyda keltirish, ijtimoiy ta’sirga ega bo‘lish istagi bilan faoliyat yuritadi. Ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan shaxslar ko‘proq tashabbuskor, mas’uliyatli va qat’iyatli bo‘ladilar. Shu sababli zamonaviy psixologiya liderlikni o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini rivojlantirish jarayoni bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

Liderlikning kognitiv jihatlari ham muhimdir. Lider vaziyatni tez va to‘g‘ri baholay olishi, strategik fikrlashi, uzoq muddatli reja tuza olishi va muammolarni hal qilishda kreativ yondasha olishi zarur. Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan liderning qaror qabul qilish jarayoni, tafakkur tezligi, axborotni qayta ishlash qobiliyati va intuitiv fikrlash mexanizmlari o‘rganiladi. Bu jarayonlarda stressga chidamlilik ham muhim rol o‘ynaydi, chunki lider ko‘pincha murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Shaxslararo munosabatlar tizimida liderning kommunikativ kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Samarali lider muloqot jarayonida ochiqlik, ishonch va o‘zaro hurmat muhitini yaratadi. U nafaqat gapira oladi, balki tinglay oladi, konstruktiv fikr bildiradi va nizolarni murosali hal etadi. Psixologik tadqiqotlar

shuni ko‘rsatadiki, samarali kommunikatsiya jamoa ichidagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilaydi va ish unumdorligini oshiradi.

Liderlikning rivojlanish bosqichlari ham tadqiqot predmeti sifatida qaraladi. Odatda liderlik maktab davridayoq namoyon bo‘la boshlaydi. Faol, tashabbuskor va tengdoshlar orasida obro‘ga ega bo‘lgan bolalar keyinchalik yetuk lider sifatida shakllanishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalari va professional faoliyat jarayoni esa liderlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Demak, liderlik jarayoni uzluksiz rivojlanib boradigan dinamik hodisadir.

Zamonaviy tashkilot psixologiyasida liderlik samaradorligini baholash mezonlari ham ishlab chiqilgan. Ular orasida jamoa samaradorligi, xodimlar qoniqishi, innovatsion faoliyat, ijtimoiy mas’uliyat va tashkilot barqarorligi kabi ko‘rsatkichlar mavjud. Psixologlar liderning shaxsiy muvaffaqiyatidan ko‘ra uning jamoaga ko‘rsatgan ijobiy ta’sirini asosiy mezon sifatida baholaydilar.

Liderlik va hokimiyat tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular aynan bir xil emas. Hokimiyat ko‘pincha rasmiy vakolat va majburiy ta’sirga asoslanadi, liderlik esa ko‘proq ishonch, hurmat va shaxsiy namuna orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan psixologiya liderlikni ijtimoiy ta’sirning eng samarali va insonparvar shakli sifatida talqin qiladi.

Shuningdek, gender masalasi ham liderlik psixologiyasida dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ilgari liderlik ko‘proq erkaklarga xos xususiyat sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda ayollar liderligi alohida tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol liderlar ko‘proq empatiya, hamkorlik va demokratik boshqaruv uslubiga moyil bo‘ladilar, bu esa zamonaviy jamoalar uchun samarali model hisoblanadi.

Liderlikning axloqiy jihati ham muhim tadqiqot yo‘nalishidir. Axloqiy liderlik shaxsiy manfaatdan ko‘ra umumiy manfaatni ustuvor qo‘yish, adolatli qaror qabul qilish va halollik tamoyillariga rioya qilishni anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan axloqiy lider jamoada ishonch muhitini shakllantiradi va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli muhit sharoitida virtual liderlik tushunchasi ham paydo bo‘lgan. Masofaviy ishlash, onlayn jamoalar va raqamli kommunikatsiya vositalari liderdan yangi kompetensiyalarni talab qiladi. Endilikda lider nafaqat an’anaviy muloqot, balki virtual muhitda ham jamoani birlashtira olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, liderlik psixologiya fanining ko‘p qirrali va doimiy rivojlanib borayotgan tadqiqot predmetidir. U shaxsning ichki psixologik tuzilmasidan tortib, guruh dinamikasi va ijtimoiy tizimlargacha bo‘lgan keng

ko‘lamli jarayonlarni qamrab oladi. Liderlikni chuqur o‘rganish jamiyat taraqqiyoti, samarali boshqaruv va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, liderlik psixologiya fanining ko‘p qirrali va murakkab tadqiqot predmetidir. U shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, tashkilot psixologiyasi va boshqaruv psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Liderlikni chuqur tahlil qilish jamiyatda samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, sog‘lom jamoaviy muhit yaratish va inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Андреева Г. М. Социальная психология. - Москва: Аспект Пресс, 2001.
2. Карпов А. В. Психология менеджмента. - Москва: Гардарики, 2005.
3. Немов Р. С. Психология. Книга 1-3. - Москва: Владос, 2003.
4. Кричевский Р. Л. Психология лидерства. - Москва: Статут, 2007.
5. Майерс Д. Социальная психология. - Санкт-Петербург: Питер, 2010.
6. Маслоу А. Мотивация и личность. - Санкт-Петербург: Питер, 2008.
7. МакКлелланд Д. Мотивация человека. - Санкт-Петербург: Питер, 2007.
8. Левин К. Динамика групп и социальные изменения. - Москва: Смысл, 2000.
9. Bass B. M. Leadership and Performance Beyond Expectations. - New York: Free Press, 1985.
10. Burns J. M. Leadership. - New York: Harper & Row, 1978.
